



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
INNOVATSION
RIVOJLANISH VAZIRLIGI**

**BOSHLANG'ICH TA'LIMGA
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI
TATBIQ ETISHNING ZAMONAVIY
TENDENSIYALARI VA
RIVOJLANISH OMILLARI**

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI

MATERIALLARI



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
МАКТАБГАЧА ВА БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ ФАКУЛЬТЕТИ
БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ МЕТОДИКАСИ КАФЕДРАСИ**

**БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМГА РАҚАМЛИ
ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ТАТБИҚ ЭТИШНИНГ
ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА
РИВОЖЛАНИШ ОМИЛЛАРИ**

ХАЛҚАРО МИҚЁСИДАГИ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН

МАТЕРИАЛЛАРИ

2021 йил, 1 -2 апрель

Бухоро - 2021

qo‘ygan bolalar uchun “Prezident sovg‘asi” berilgani kabi Germaniyada boshlang‘ich sinf o‘quvchisiga ilk o‘qish kuni shirinliklar va kerakli maktab qurollaridan iborat “maktab sovg‘asi (kulyok)” beriladi. Germaniyada majburiy maktab ta‘limi 6 yildan 19 yilni o‘z ichiga oladi, demak maktabda ta‘lim umuman olganda 13 yilni tashkil etadi. Boshlang‘ich maktab-ta‘lim tizimining poydevori hisoblanadi. Bu ta‘lim bosqichining vazifasi – bolalarga ta‘limni davom ettirishga imkon beruvchi bilimlar asosini berishdir. Boshlang‘ich maktabdan so‘ng o‘quvchilar yo‘nalish bosqichidagi maktablarga o‘tadilar. Germaniyada o‘rta maktab tiplari: asosiy, real, aralash maktablar va gimnaziyalar. O‘quvchilar ularga tavsiya etilgan o‘quv yo‘nalishlaridan bitta asosiysini tanlab olish imkoniga ega. Bu tabiiy-matematik, texnik, lingvistik, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-tibbiy, musiqiy-badiiy yo‘nalish bo‘lishi mumkin. Boshlang‘ich sinflarda umumta‘lim bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish va shular asosida o‘quvchilarni zamonaviy ma‘lumotlarni olish va qayta ishlashning ilmiy metodlari bilan tanishtirish, oliy o‘quv yurtida muvaffaqiyatli o‘qish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Germaniyada boshlang‘ich sinflarda texnologiya fanini o‘qitishda alohida e‘tibor qaratiladi. Texnologiya fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilari mustaqil va ijodiy fikrlashga o‘rgatib boriladi. Bu fan maxsus jihozlangan sinflarda o‘tkaziladi.

Janubiy Koreya Respublikasi ko‘plab tadqiqotchilarning diqqatini o‘ziga tortmoqda, sababi bu davlat postindustrial sivilizatsiya yutuqlarini egallagan Osiyo – Tinch okeani regionining noyob davlatlaridan biridir. Koreyaliklar bajarilishi shart bo‘lgan asosiy vazifa - o‘z an‘anaviy madaniyatini saqlash, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni o‘z madaniy-siyosiy identivlik, Sharqning an‘anaviy qadriyatlarini va markazlari bilan bog‘lashga intilish deb hisoblaydilar. Bu davlatning ta‘lim tizimi YUNISEF ekspertlari xulosasiga ko‘ra sanoati rivojlangan davlatlar ichida “eng samaralisi” deb tan olingan. Ko‘pchilikning yagona fikricha, Janubiy Koreyaning iqtisodiyoti va texnikadagi yutuqlari “inson resursiga investitsiyani to‘g‘ri tikkanligida” deb ta‘kidlashadi. Ko‘p rivojlanayotgan davlatlarda ta‘lim bugungi kunda jamiyatning faqat sarf-harajatlar sohasi emas, balki asosiy ishlab chiqaruvchi kuchiga aylandi. Ya‘ni, ta‘lim raqobatbardosh, jiddiy moliyaviy mablag‘larni olib keluvchi soha bo‘lishi kerakligi isbotlandi. Ta‘limning deyarli 1-bosqichiy davlat va iqtisodiyotning rivojlanishiga qaratilgan bo‘lishi kerak. Faqat bilim olish uchungina emas, balki olingan bilimlarni amaliyotda samarali qo‘llash uchun o‘qish zarur.

Koreya o‘qituvchilarining fikricha 3 yoshgacha bog‘chaga brogan bolalarning fanlarni qabul qilishi, uydan to‘g‘ri kelgan bolalarning qabul qilishidan yaxshiroq. Yasli bog‘chaga qatnab kelgan bolalar faolroq, qiziquvchan, o‘zlashtirish darajasi yuqori bo‘ladi.

Darhaqiqat, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek, bolalar tarbiyasi jarayoniga o‘z ishini puxta biladigan, malakali va har bir bolaga individual yondasha oladigan pedagog kadrlarni jalb qilgan holda, ularni go‘dakligidan ongi va tafakkurini to‘g‘ri shakllantirib bormasak, kelajakda yuksak saviya, bilim va ma‘naviyatga ega bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalash qiyin bo‘ladi. (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 14 fevral 2018 yil maktabgacha ta‘lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi tahliliga bag‘ishlangan videoselektordan).

Koreyada davlat tasarrufidagi boshlang‘ich maktablardan tashqari qator xususiy maktablar ham mavjud. Bu maktablarning o‘quv dasturlari davlat maktablari o‘quv dasturlariga birmuncha mos keladi, lekin o‘qitish yuqori darajada amalga oshiriladi. Masalan, kam sonli o‘quvchilarga ko‘p o‘qituvchilarning jalb etilishi, qo‘shimcha fanlarning kiritilishi, umuman ta‘limning yuqori standartlarga egaligi va h.k. Shu bois ko‘pchilik ota-onalar o‘z farzandlarini xususiy maktabga berishga intiladilar. Lekin bunday maktablarda o‘qish narxining balandligi ota-onalarni o‘ylantirib qo‘yadi. Boshlang‘ich maktabni bitirgan o‘quvchilar keyingi bosqichlarga imtixonsiz o‘tadilar. Kanadaliklarning eng muhim yutuqlaridan biri - bu ularning ta‘lim tizimidir. Ilg‘or universitet va kollejlardagi ta‘lim sifati juda yuqori va Kanada diplomlari butun dunyoda tan olinadi. Xalqaro reytingda Kanada ta‘limi AQSHdan keyin ikkinchi o‘rinda turadi.

Rivojlangan mamlakatlardagi ta‘lim tizimini oladigan bo‘lsak, Angliyada bolalarning maktab yoshi o‘rtasa 5-6 yosh bo‘lib, bolalar sinfdan o‘ynaydilar, mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanadilar, ovqatlanadilar. Hamma mashg‘ulotni birta murabbiy olib boradi. Bolalar ko‘proq ochiq havoda sayr qilishadi.

Fransiya boshlang‘ich maktablarida ta‘lim mazmuni ona tili va adabiyoti hamda matematikadan iborat asosiy, tarix, geografiya, aholishunoslik, tabiiy fanlar, texnologiya fani, jismoniy va estetik tarbiya kabi yordamchi predmetlarga bo‘linadi.

Xuddi shunday Shvetsariyada ham texnologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilar ijodkorligini oshirish maqsadida sinf xonalarini uy ko‘rinishida bezab qo‘yishadi. Bunday jihozlanishda o‘quvchilar o‘larini uylaridagiday his qilib mustaqil fikrlashlari uchun zamin yaratiladi.

Modulli ta'lim tizimi: Modulli texnologiyaga tizimli faoliyat yondashuvi eng avvalo, kasb-hunar ta'limida qo'llaniladi. Yorqin misoli sifatida Yuneskonning xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan "Mehnat ko'nikmalari modullari konsepsiyasi" hisoblanadi. Bu konsepsiya yaxlit o'qitishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi.

Modulli o'qitishda o'quv dasturlarini to'la qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan tabaqalash orqali o'qitishni tabaqalashtirish imkoniyati mavjud bo'ladi, ya'ni o'qitishni individuallashtirish mumkin.

O'qitishning modul tizimiga o'tish samaradorligi quyidagi omillarga bog'liq bo'ladi:

- o'quv muassasasining moddiy-texnikaviy bazasi darajasi;
- professor-o'qituvchilar tarkibining malakaviy darajasi;
- o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi;
- ko'zlangan natijalarni baholash;
- didaktik materiallarni ishlab chiqarish;
- natijalar tahlili va modullarni maqbullashtirish.

Modulli o'qitish dasturlari o'quvchining individual ehtiyojlariga osonlik bilan moslashadi va erkin vaqt omiliga ega bo'ladi, chunki bu yerda individuallashtirilgan o'qitish jarayoni ustunlik qiladi. Tizimli faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasi o'quv materialini individual va mustaqil o'zlashtirishga to'la imkoniyat yaratilishi tufayli ixtisoslikka samarali o'rgatishni ta'minlaydi.

Masofali o'qitish:

Masofadan turib o'quv mashg'ulotlarining barchasi yoki ko'p qismi telekommunikatsion va zamonaviy axborotlashtirish texnologiyalari asosida olib boriladi.

Masofaviy ta'lim jarayoni imkoniyati cheklangan va chet elda o'qishni istovchilar, ikkinchi mutaxassislikni egallovchi shaxslar va boshqa shu kabi bir necha imtiyozli jarayonlarni qamrab oladi. Masofaviy o'qitish-ilmiy-texnikaviy taraqqiyot davrining mahsulidir va ayni vaqtda uning rivojlanish katalizatori hamdir.

Maqsadi: Davlat ta'limi standartlari asosida shakllantirib, bilim ko'nikma va malakalarni hamda shaxsiy fazilatlar tizimini o'z ichiga oladi. Bu yaxlitlik tizim bo'lib, o'qitishning maqsadi, o'quv fani maqsadi, mavzuning o'quv maqsadi, mavzuning tayanch tushunchalari o'quv maqsadidan shakllanadi.

БОШЛАНГИЧ СИНФЛАР ЎҚУВЧИЛАРИДА КАСБГА БЎЛГАН ҚИЗИҚИШНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Ш.М.Фармонова
Ўзбекистон

Аннотация: Билишга бўлган қизиқиш нафақат мактаб ўқувчиларининг, балки талабаларнинг ҳам ўқув фаолиятида рағбатлар асосида пайдо бўлган ҳолда катта аҳамиятга эга. Қизиқишлар ва рағбатлар ўзаро боглиқ ва катта ярим шарлар қобигида кучли қўзғатиш марказини яратишади. Билишга бўлган қизиқиш ва рағбатларнинг йиғиндиси шундай асос ҳисобланадики, унинг асосида талабаларда билимлар ривожланади ва касбий қобилият ва маҳоратлар шаклланади.

Кишининг қизиқишлари ҳаётнинг жамоатчилик-тарихий ва алоҳида шароитлар асосида аниқланади. Меҳнат фаолиятида қизиқиш кишининг эҳтиёжларини қондиришга қаратилган шароитларга нисбатан фаол йўналтирилган муносабатдир. Шахснинг умумий йўналтирилганининг ифодаси сифатида қизиқиш субъектнинг фаолиятида ва унинг рағбатлантирувчи соҳасида содир бўлувчи барча психик жараёнларни қамраб олади ва йўналтиради.

Одам қизиқишлари тизимида кишининг муайян касбга бўлган муносабатини ифодаловчи ва касбий фаолиятнинг ягона "ички" созловчиси сифатида касбий қизиқиш алоҳида ўрин эгаллайди. Агар тарихга назар ташлайдиган бўлсак, у ҳолда Қадимги Юнонистон ва Рим файласуфлари уни шахснинг хусусияти ва одамнинг касбий фаолиятидаги муваффақиятини белгиловчи руҳий ҳодиса деб тушунишган. Амалий педагогик ва психологик тадқиқотларда "касбий қизиқиш" атамасининг қўлланила бошлаганига кўп бўлмади, яъни атиги 15-20 йил олдин. Шу билан бирга бу ушбу муаммони ҳал қилиш учун қисқа муддат эмас, лекин бугунги кунда у психологиянинг энг муҳим муаммоларидан биридир.

Замонавий тадқиқотчилар томонидан касбий қизиқиш тушунчасига айнан қандай мазмунлар киритилмоқда? Бир қараганда касбий қизиқиш шахснинг бирор бир муайян касбга бўлган йўналишидан иборатдек кўринади. Лекин, йўналтирилганлик тушунчаси ўз таркибига кўра етарли даражада катта хажмга эга ва мураккаб бўлиб, уни қизиқиш билан аралаштириш тўғри бўлмаслиги

аник. Тадқиқотчилар томонидан касбий қизиқишга шахсий шаклланиш сифатида етарлича эътибор берилмаслиги баъзан унинг моҳиятини тўлиқ акс эттирмайдиган турли феноменларнинг яратилишига олиб келади. Мисол тариқасида куйидагиларни келтириш мумкин. Касбий қизиқиш: афзал кўриладиган фаолият турига бўлган қизиқиш сифатида [Н.И.Калугин]; қобилиятлар ва маҳоратларнинг бирикмасида фаолиятга бўлган ижодий муносабатнинг таъсис қилувчи бошланиши сифатидаги индивидуал психологик ҳодиса сифатида [А.И.Щербаков]; шахснинг касбни муваффақиятли эгаллашига бўлган йўналтирилганлик сифатида; онг, ирода ва туйғуларнинг касбни эгаллашга йўналтирилганлиги ва ҳоказолар сифатида тушунилади. Бундай таърифлар ўрганилаётган ҳодисанинг хусусиятини тўлиқ акс эттирмайди, бу эса уларнинг тадқиқотларни ўтказиш учун йўналтирувчи услубий ускуна сифатида ва амалий мақсадларда бошқарувчи объект сифатида ишлатилишини қийинлаштиради. Баъзи тадқиқотларда касбий қизиқиш шахснинг туғма хусусияти сифатида тушунилади [Л.Йовайша,].

Адабиётларда касбий-педагогик қизиқишларни ўрганиш билан боғлиқ масалалар ўз аксини топди. Масалан, педагогик олий ўқув юртлар талабаларида касбий қизиқишни ўрганиб чиқишда [В.Г.Максимов], унинг асосий кўрсаткичлари аниқланган: 1) ўқувчилар, ўқитувчилар, ота-оналар билан унинг бўлажак ўқитувчи сифатидаги ижтимоий ва касбий ҳолати билан тавсифланувчи жамоатчилик алоқаларининг мажмуаси; 2) талабанинг ўқувчилар, ўқитувчиларга ва улар билан ишлашга бўлган ижобий ҳис-туйғу-англаш муносабати; 3) талабанинг ақлий-англаш даражаси; 4) талабанинг биринчи навбатда унинг турли даражалардаги қийинчиликларни енгиб ўтишидаги қобилияти билан аниқланувчи касбий-тиббий фаолиятидаги иродавий фаоллиги.

Кўриб чиқилаётган тушунчанинг энг тўғри таърифи кишида муайян касб билан алоқага киришиш жараёнида ривожланадиган тизимли шаклланиш сифатидаги касбий қизиқиш тўғрисидаги тасаввур асосида ишлаб чиқилиши мумкин. Шу нуқтайи назардан касбий қизиқиш танланган касбий фаолиятга йўналтирилган танлов-англаш, ҳис-туйғу ва иродавий фаолликни ўз ичига олувчи психик жараёнлар, хусусиятлар ва ҳолатларнинг мураккаб кўп-босқичли иерархик симптомли мажмуаси деб тушунилади. Лекин бу таъриф ҳам касбий қизиқишнинг моҳиятини етарлича очиб бера олмайди. Бу нимадан иборат? Фаолиятнинг психологик назариясидан келиб чиққан ҳолда, шахснинг ҳар қандай фаоллиги сабабли асосга эга. Шу муносабат билан шахснинг танланган касбий фаолиятга йўналтирилган фаоллиги сабаблар тизими билан аниқланади. “Касбий қизиқиш” тушунчасини кўриб чиқишда С.П.Крегжде уни касбга йўналтирилганлик тушунчасига тенглаштиради. Лекин касбий йўналтириш айниқса, касбий-педагогик касбий қизиқишни таркибий қисм сифатида ўз ичига оладиган каттароқ хажмдаги шахсий шаклланишдан иборат. Ўрганилаётган ишнинг афзаллиги ўқувчилар ва педагогик олий ўқув юртлар талабаларида касбий қизиқишларни ташхис қилиш учун қўлланмани ишлаб чиқиш шунингдек, муаллиф томонидан ўқувчилар ва талабаларда касбий қизиқишларни шакллантиришнинг услуби деб ҳисоблаш лозим.

Шуни қайд қилиш мумкинки, биз таҳлил қилиб чиққан ишларнинг кўпчилигида, муаллифлар, касбий қизиқишнинг моҳиятини очиб беришаркан, қизиқишнинг таркибий қисмларидан бири сабаблар бўлганидан ташқари ҳолларда [А.И.Щербаков] унинг сабабли қисми киритишмайди. Фаолиятнинг А.Н.Леонтьевнинг ва бошқаларнинг асарларида тақдим этилган тушунилардан келиб чиққан ҳолда, сабаблар шахсни фаолиятга ундовчи кучга айланади. Шу муносабат билан муайян касбий фаолиятга бўлган ижобий ҳис-туйғу муносабат асосида пайдо бўлган сабаблар касбий қизиқишнинг қисмларидан бири саналади. Шундай қилиб, касбий қизиқишни тушунишга нисбатан адабиётларнинг таҳлили куйидагича хулосага келишга имкон беради. Касбий қизиқиш баъзан шахснинг хусусияти, баъзан рухий жараёнлар, хусусиятлар ва ҳолатларнинг мажмуаси, баъзида шахснинг муносабати, баъзан эса йўналиш ва ҳоказолар сифатида тушунилади. Касбий қизиқиш моҳиятини ягона тушунилишининг йўқлиги уни ўрганишга бўлган турли услубий ёндашувларга олиб келади.

Касбий қизиқишнинг адабиётлардаги ўрганилишини тугатар эканмиз, унинг психологиянинг илмий назариялари асосида тушунилишига қисқача тўхталиб ўтиш зарур. “Акс этиш” назарияси асосида касбий қизиқиш маълум касбий фаолият ва унинг “акс эттирувчиси” бўлган бажарувлари одам психикасига нисбатан “эск эттирилувчи” ҳисобланади. “Акс эттирилувчининг” характери (касбий қизиқиш) "акс эттирувчи" (касбий фаолият ва унинг бажарувчиси) онгида акс этиш содир бўладиган муайян шахсга боғлиқдир. Ташқи таъсир унда юзага келган ўйлар ва ҳис-туйғулар қаторидан ўтган ҳолдагина у ёки бу таъсир кўрсатиши мумкин. Касбий қизиқишнинг пайдо бўлиши киши онгидаги касбий фаолиятнинг ҳиссий намоён бўлиши сифатида қаралади. Акс этиш назариясининг асосий ҳолатлари кишида муайян фаолиятга бўлган касбий қизиқишнинг пайдо бўлиш механизм сифатида қаралишига имкон беради, бу эса

Г.Н. Курбанова, Ш.Т.Юлдашова. РАЗВИТИЯ МЕТОДОВ ПРЕПОДОВАНИЯ В МЕДИЦИНСКИХ ВУЗАХ	186
М.Сатторов. УГОЛОВНАЯ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА КЛЕВЕТУ	189
Qo'shshayeva A. A., Faxriddinova M.Q. BOLA PSIXOLOGIYASI VA UNING NUTQIDAGI NUQSONLAR	192
Dilsora Ergashova. FONETIK MASHQLARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI	194
N.H. Hojiyeva. O'ZBEK TILIDA MEVA ETIMOLOGIYASIGA OID LUG'ATLAR	196
M.Z. Temirova. ATOM TUZILISHINING HOZIRGI ZAMON ATOMISTIK TALQINI.....	198
M.I.Adizova. 3-SINF O'QISH DARSLIGIDAN 1 SOATLIK NOAN'ANAVIY OCHIQ DARS ISHLANMASI	200
M. G. Садуллоева. УНИКАЛЬНЫЙ ИДИОЛЕКТ ГУЛХАНИ- БАСЕННИКА	206
G. Usmonova. BOSHLANG'ICH SINFLARDA GEOMETRIK MATERIALNI O'RGATISHNING UMUMIY MASALALARI.....	207
S.Cho'lliyeva. 1-SINF МАТЕМАТИКА DARSLIGIDAN 1 SOATLIK NOAN'ANAVIY OCHIQ DARS ISHLANMASI	208
М.О.Очилова, Р.Шамсуллаева. Бошланғич синф математика дарсларида ижодий фикрлашни шакллантириш.	210
A. Idiyev, J Hayitov. O'QUVCHILARDA FIGURA YUZI TUSHUNCHASINI SHAKLLANTIRISHGA DOIR USULIY TAVSIYALAR	212
Ю.Пўлотова, С.Ўктамова. БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ МЕТОДИК МУАММО СИФАТИДА	213
Ю.Пўлотова, Ф.Исоева. ОНА ТИЛИ ТАЪЛИМИДА ПРАГМАТИК КОМПЕТЕНЦИЯНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ АСОСЛАРИ	215
M.M.Tilavova. TECHNOLOGIYA DARSLARIDA XORIJIY TA'LIM TIZIMIDAN FOYDALANISH.....	217
Ш.М.Фармонова. БОШЛАНҒИЧ СИНФЛАР ЎҚУВЧИЛАРИДА КАСБГА БЎЛГАН ҚИЗИҚИШНИ ШАКЛЛАНТИРИШ	219
N.H.Rahmatov. BOSHLANG'ICH SINFLARDA ASOSIY MIQDORLARNI O'RGATISH JARAYONIDA PEDAGOGIK TECHNOLOGIYALARNI QO'LLASH SAMARADORLIGI	221
G. T. Cho'lliyeva. OHANG – NUTQIY JARAYONNING AJRALMAS BIRLIGI	225
G. Ш. Рахмонова. ТАЛАБАЛАРДА МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ТАРБИЯНИНГ АҲАМИЯТИ.....	228
С.Р.Исмаатов, Ш.Ш.Шукруллаева. ГУРУХ РАХБАРИНИНГ ТАРБИЯВИЙ ИШЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ УСУЛЛАРИ.	230
P.A. Қўлдошев. ДУНЁДА ЧАПАҚАЙЛИК МУАММОСИ	234
P. M. Раҳмоновна. ТАЪЛИМНИ РАҚАМЛАШТИРИШ ШАРОИТИДА ЎҚУВ МАТЕРИАЛИНИ ЎЗЛАШТИРИШ ДАРАЖАЛАРИ	236
Ю.Пўлотова. Ўқиш дарсларида илмий-оммабоп мақолаларни ўқитишда ТАЪЛИМ МЕТОДЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ	239
Ю.Пўлотова. БОШЛАНҒИЧ СИНФ Ўқиш дарсларида ўқувчиларни китобхон СИФАТИДА ТАРБИЯЛАШНИНГ МЕТОДИК ИМКОНИАТЛАРИ	240
G. N.Davranova. МАКТАВГАСНА YOSHDAGI BOLALARNING DUNYOQARASHINI KENGAYTIRISHDA O'YINCHOQLARNING AHAMIYATI.....	242
G. F. Yodgorova. BOSHLANG'ICH SINFLARDA XALQ OG'ZAKI IJODINING TARBIYAVIY AHAMIYATI.....	245
Г.А.Равганова, М.Б.Сатторова, Ҳ.Б. Сайпиллаева. ИЖТИМОИЙ ФАОЛ ТАЛАБА ШАХСИНING ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	248
H. G'. Jumayeva. BOSHLANG'ICH SINFLARDA YOZUV VA HUSNIXAT DARSLARINI TASHKIL QILISH	250
Ҳ.Х. Ҳамзаев, М.Б.Абулқосимова, С.Б. Қодирова. БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМНИ ИНТЕГРАТИВ РИВОЖЛАНТИРИШ ШАКЛЛАРИ	252
M.H.Nakimova, D. Halimova. МАТЕМАТИКА FANINI O'QITISHDA TA'LIM TECHNOLOGIYANI TATBIQ ETISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	254
М.Қувондиқова. ТАЛАБАЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ИШИ - ТАЪЛИМНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ЕТАКЧИ ШАКЛИ СИФАТИДА.....	256
R.X.Jumayev, M.Xayrullayeva. YOZUVGA O'RGATISH DARSLARIDA ZAMONAVIY USULLARDAN FOYDALANISH.....	258
М. Қувондиқова. БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ МУСТАҚИЛЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ.....	260